"O'zbekiston-2030" strategiyasida Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Ushbu dasturiy hujjatda qo'shnlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armayalarning ilg'or tajribasini o'rganish asosida qo'shnlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish ham o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlarning samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirish, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi<sup>[3]</sup>.

Moliya vazirining 2008-yil 24-noyabrdagi 110-sun buyrug'i bilan tasdiqlangan va "Mudofaa majmui va huquqni muhofaza qilish organlari muassasalari va tashkilotlarining xarajatlari va boshqa maxfiy xarakterga ega bo'lgan xarajatlarining g'azna ijrosi tartibi haqida" Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 16-aprelda 1941 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazildi<sup>[4]</sup>. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi va Davlat zaxiralalarini boshqarish qo'mitasi korxonalari, tashkilotlari,



muassasalari hamda harbiy qismlari xarajatlari, shuningdek, maxfiy xususiyatga ega xarajatlari bo'lgan boshqa budget tashkilotlarining (keyingi o'rnlarda – budget tashkilotlari) maxfiy xarajatlarining g'azna ijrosi tartibini belgilaydi. Budget tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar (keyingi o'rnlarda – mahsulot yetkazib beruvchilar) bilan shartnomalarini ro'yxatga olish (hisobga olish) va ularning xarajatlarini to'lab berish, shu jumladan, maxfiy xarakterga ega bo'lgan budget xarajatlari to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha vazifa va funksiyalarni bajarish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish, Vatanimiz mustaqilligi, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ko'z qorachig'idek asrash, professional milliy armiyani shakllantirish, harbiy xizmat nufuzini oshirishdagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati, sharafli va muqaddas burchini bajarishda mardlik va jasorat ko'rsatgani, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuqori mahoratga ega kadrlarni tayyorlashga qo'shgan munosib hissasi uchun qator xarbiylar mukofotlandi<sup>[7]</sup>.

Bir paytlar aksariyat ota-onalar farzandini askarlikdan olib qolishga harakat qilgan bo'lsa, bugun "Mening o'g'lim ham Qurolli Kuchlar safida xizmat qilsin", deb yuksak ishonch va faxr tuyg'usi bilan armiyaga jo'natmoqda. Hozir yigitlarimiz uchun harbiy sohada xizmat qilish nafaqat burch, balki shon-sharaf ishiga aylandi.

Ayni paytda Qurolli Kuchlar tizimidagi tub islohotlarda "Inson qadri uchun" degan muhim tamoyil markaziy o'ringa qo'yilmoqda. Sohadagi sa'y-harakatlar yoshlari qalbida armiya bilan faxlanish, Vatan himoyachisi bo'lishga intilishni kuchaytirmoqda. Qurolli Kuchlar akademiyasi, yangi tashkil etilgan Harbiy-tibbiyot akademiyasi, "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari va boshqa ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari profesional kadrlar tay yorlanadigan maskanlarga aylandi. Bu orqali yoshlari o'tasida harbiy xizmatga qiziqish va intilish yanada oshdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mudofaa majmui va huquqni muhofaza qilish organlari muassasalari va tashkilotlarining xarajatlari va boshqa maxfiy xarakterga ega bo'lgan xarajatlarining g'azna ijrosi nazorati Davlat budgeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq tuzilgan xarajatlar smetasining choraklik ajratilgan mablag'lari doirasida alohida axborot tizimda amalga oshiriladi. Budget tashkilotlari to'lovlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlarining g'azna ijrosi qoidalarida (ro'yxat raqami 2850, 2016-yil 22-dekabr) belgilangan tartibda g'aznachilik bo'linmalariga imzolar namunalari va muhr izi kartochkasi taqdimal etadilar.

Budget tashkilotlari yoki iqtisodiyot va moliya organlari tomonidan tegishli iqtisodiyot va moliya organlarida o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan yakka tartibdag'i va umumi xarajatlar smetasi hamda ularga o'zgartirishlar g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladi. Bunda iqtisodiyot va moliya organlari tomonidan taqdim qilingan xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar nazorati g'aznachilik bo'linmalari tomonidan choraklik ajratilgan mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish (hisobga olish) va kassa xarajatlarini amalga oshirish faqat ularga budget tashkilotlari xarajatlar smetalarini taqdim qilgandan so'ng amalga oshirilishi mumkin. G'aznachilik bo'linmalari budget tashkil-otlarining mahsulot yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzishi va ular tomonidan Davlat budgeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifining tegishli moddalari bo'yicha kreditorlik qarzlarni hisobga olgan holda, xarajatlar smetasida ajratilgan choraklik mablag'lari doirasida amalga oshirilishi ustidan nazorat qiladi. Asosiy xarajatlar smetalarini ro'yxatga olingandan so'ng, budget tashkilotlari va ularning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan vaqtinchalik xarajatlar smetalarini asosida oldin tuzgan shartnomalarini ro'yxatga olingan asosiy xarajatlar smetalariga muvofiqlashtirish maqsadida, zarur bo'lgan hollarda, o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Tegishli budgetlarning daromadlar va xarajatlar yoyilmasiga, budget tashkilotlarining xarajatlar smetalariga, kapital qurilishning smeta xarajatlariga (qurilishlarning manzilli va titul ro'yxatlariga (loyiha-tadqiqot ishlari ning manzilli ro'yxatiga) o'zgartirishlar kiritish, iqtisodiyot va moliya organlari tomonidan budget tashkilotlari, buyurtmachilar hamda kiritilayotgan o'zgartirishlarni tegishli g'aznachilik bo'linmalari bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshiriladi. Qabul qilingan yuridik majburiyatlarning ajratilgan mablag'lar summasidan, shuningdek kassa xarajatlarining aniqlangan mablag'lari summasidan ortiqcha amalga oshirilishiga olib keldigan miqdorda mablag'larni kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Shu bilan birga, ajratiladigan mablag'larning kamaytirilishi tomonlar yuridik majburiyatini o'zaro kamaytigan holda amalga oshirilishi mumkin.



Budjet tashkilotlari tashabbusi bilan xarajatlar smetalariga kiritilayotgan kamaytirishlarning g'aznachilik bo'linmalari bilan kelishivi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) budjet tashkiloti tegishli xat bilan xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmasiga xarajatlar smetasiga o'zgartirish so'rovini (keyingi o'rnlarda – so'rov) taqdim qiladi;
- 2) g'aznachilik bo'linmasi:
  - tuzilgan va ro'yxatga olingan (hisobga olingan) shartnomalar (kassa xarajatlari) summalarini taklif qilinayotgan aniqqliklarni hisobga olgan holda aniqlangan (taklif qilinayotgan) mablag'lar summalaridan oshmaganligi bo'yicha so'rovni tekshiradi;
  - kamaytirish rejalahshtirilayotgan mablag'lar bo'yicha budjet tashkilotining tegishli xarajatlar moddalarini bo'yicha yuridik majburiyatlarini ro'yxatga olish (hisobga olish) va xarajatlar to'lovlarini amalga oshirishni vakolati organ tomonidan budjet tashkilotining xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi tegishli qarori qabul qilingunga qadar (kamaytirish ko'zlanayotgan summalar qismida), to'xtatib qo'yadi;
  - bir ish kunidan oshmagan muddatda so'rovga "KELISHILDI" shtamp, imzo va ro'yxatga olingan sana qo'yilgan holda budjet tashkilotiga qaytariladi.
- 3) g'aznachilik bo'linmasiga kelishuv uchun taqdim qilingan o'zgartirish so'rovi asosli sabablarga ko'ra qondirilishi mumkin bo'lмаган hollarda, g'aznachilik bo'linmasi bir kun muddatda qaytarish sabablarni ko'rsatgan holda yozma ravishda qaytaradi.

Budjet tashkiloti kelishilgan so'rovni olgandan so'ng ikki ish kuni mobaynida uni ajratilgan budjet mablag'larini bosh taqsimlovchisi orqali tegishli iqtisodiyot va moliya organiga yuboradi. Iqtisodiyot va moliya organi o'zgartirish kiritishni rad qilgan holatda, budjet tashkiloti majburiyatlar olish va xarajatlarni amalga oshirishni to'xtatib qo'yilishini bekor qilish uchun tegishli iqtisodiyot va moliya organining xatini ilova qilgan holda xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmasiga xat yuboradi.

Tekshiruvlar ijobji natijalar berganda va ko'rsatilgan xarajatlar turlari bo'yicha xarajatlar smetasiga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkonii mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari:

- g'aznachilikning dasturiy majmuida kamaytirilishi ko'zlanayotgan tegishli budjet tashkilotlarining keyingi yuridik majburiyatlarini ro'yxatga olish (hisobga olish) va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi;
- hujjatlar taqdim qilingan kunning keyingi kunidan kechikmagan muddatda, ijobji xulosani taqdim qilingan hujjatlar bilan birgalikda tegishli iqtisodiyot va moliya organiga yo'llaydi.

Bunda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan yuridik majburiyatlarini qabul qilish, shuningdek budjet tashkilotlarining keyingi kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yishni bekor qilish iqtisodiyot va moliya organlari tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga, g'aznachilik bo'linmalari bilan o'rnatilgan tartibda kelishilgan asosda barcha tasdiqlangan va ro'yxatga olingan, budjet tashkilotlarining tasdiqlangan tegishli yakka tartibdagi smetalariga kiritilgan o'zgartirishlar ro'yxati nusxalari taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi. Hujjatlar loyihasi va hisob-kitoblar bo'yicha iqtisodiyot va moliya organi g'aznachilik bo'linmasidan salbiy xulosa olgandan so'ng, iqtisodiyot va moliya organi o'rnatilgan tartibda hujjatlarini qayta ishlash va budjet tashkilotlarining tasdiqlangan mablag'lariga o'zgartirishlar kiritishga to'sqinlik qiluvchi sabablarni bartaraf qilish bo'yicha choralar ko'radi.

Budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek, Davlat budjeti hisobidan kapital qurilish buyurtmachilarining shartnomalari g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olinadi.

Bunda budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan budjet mablag'larini hisobidan tuzadigan shartnomalarida qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan holatlardan tashqari, belgilangan tartibda 30 foiz miqdorida oldindan to'lov amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan budjet tashkilotlarining shartnomalari:

- budjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha – ro'yxatdan o'tkaziladi;
- vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lar bo'yicha – hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlari tomonidan yuridik majburiyatlarning qabul qilinishi, ularning xarajatlar smetalarida Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifining tegishli moddalari bo'yicha ko'zda tutilgan, ajratiladigan mablag'lar hajmi doirasida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari tomonidan tashqi qarzlarning jalb qilinishi, ssuda va kreditlar olinishi, shuningdek budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobiga lizing shartnomalarini tuzish taqiqlanadi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tovar (ish, xizmat)lar to'lovi bir nechta manbalar mablag'i hisobidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan holatlarda, shartnomalarda majburiy ravishda ushbu manbalar bo'yicha rekvizitlar va ular hisobidan to'lanishi lozim bo'lgan summalar alohida ko'rsatiladi.

Budjet tashkilotlarining ichki xo'jalik yurituvchi bo'linmalari tovarlar yetkazib berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Ichki ishlar vazirligining kir yuvish bo'linmalari, mehmonxonalar, ta'mirlash-qurilish guruhlari (brigadalari) va qishloq xo'jaligi mahsulot-



larini yetishtirish va go'sht-sut mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan yordamchi xo'jaliklari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq budget mablag'lari hisobidan ichki xo'jalik shartnomalari va to'lovlarni amalga oshirish uchun asos bo'ladigan, ichki xo'jalik shartnomalari bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Bunda budget tashkilotlari tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida to'lovlarni o'tkazish g'aznachilik bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Ichki ishlar vazirligining, qoidaga ko'ra, budgetdan tashqari hisobvaraqlariga keyinchalik ularni qonunchilik hujjatlariga muvofiq ko'zda tutilgan maqsad-larga ishlatish bilan amalga oshiriladi.

Shartnomalar tuzmasdan ikki nusxada So'rovnama va to'lov topshiriqnomalari asosida mablag'lar quyidagilarga:

- sud qarorlari bo'yicha to'lovlar, davlat bojlari, yig'imlar to'laganda, yuridik majburiyatlar qabul qilinishi boshqa tasdiqlovchi hujjatlar (hisobvaraqlar, kvitansiyalar, Hukumat qarorlari va boshqalar) asosida shartnomalar tuzmasdan amalga oshirilishi mumkin;
- hisobot choragi (yili) yakuni bo'yicha budget mablag'larining iqtisod qilingan qismida Budget tashkilotla-rining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi.

Kapital qo'yilma buyurtmachilarining buyurtmachi xizmatini saqlab turishga mablag'larni o'tkazish.

Budget tashkilotlarining mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, tomonlarning yuridik xizmatlari (jalb qilingan advokatlar) tomonidan majburiy tartibda qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi tekshirilishi shart.

Bunda shartnomalarda tomonlar yuridik xizmatlarining yoki jalb qilingan advokatlarning imzosi bo'lishi shart. Shartnomalar, shuningdek, ularga qo'shimcha kelishuvlar aniq va ravshan, siyoh yoki sharikli ruchka yoki (yozuv, hisoblash) mashinada yozilgan holda to'ldirilishi lozim. Hech qanday tuzatishlar, o'chirib yozishlar yoki to'g'rilashlarga oldindan kelishib olingan bo'lsa ham yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining amal qilishi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq davlat xaridlari strategik subyektlari amalga oshiradigan davlat xaridlari, rivojlantirish davlat dasturlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan loyihalarni ro'yobga chiqarishda amalga oshiriladigan davlat xaridlari bundan mustasno;
- davlat tomonidan himoya qilinishi lozim bo'lgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash va ichki tartibni saqlash uchun amalga oshiriladigan davlat xaridlari, shuningdek, davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan davlat xaridlari;
- favqulodda vaziyatlar yuz bergen hollarda O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlari;

Belgilansinki, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi:

- a) xarid komissiyalari tomonidan baholanadigan eng yaxshi takliflarni saralab olish yo'li bilan:
- davlat tomonidan himoya qilinishi lozim bo'lgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash va ichki tartibni saqlash uchun, shuningdek, davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan hollarda;
- b) to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha:
- O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vako-latli organ bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta'minlash uchun;
- sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokat (vakil) tayinlanishi bilan bog'liq;
- narxlari qonun hujjatlariga muvofiq qat'iy belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridlari nis-batan amalga oshirilishi belgilansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Hisob palatasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat buyurtmachilari tomonidan ilovadagi ro'yxatga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni keyinchalik ular to'g'risidagi ma'lumotlarni shartnomalari tuzilgan sanadan boshlab 3 kundan kechiktirmsandan davlat xaridlarning maxsus axborot portaliga joylashtirgan holda to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida xarid qilish tartibini belgilash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Bunda, ro'yxatdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi bo'yicha tuzilgan shartnomalar va ularga qo'shimcha kelishuvlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasida kompleks ekspertizadan o'tkazilmaydi, bundan qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (budget buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdoridan oshgan shartnomalar va ularga qo'shimcha kelishuvlar mustasno.



Belgilansinki, davlat buyurtmachilari tomonidan davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga:

- boshlang'ich narxni tushirish bo'yicha auksion o'tkazish to'g'risida e'lon – uni o'tkazishdan kamida besh kun oldin;
- tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon – tanlov ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddatining tugashidan kamida o'n kun oldin joylashtiriladi [4].

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish tartib-taomillarini majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazish to'g'risidagi talabi 2022-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiganligi [6].

Yuqorida keltirilgan hujjatlarga asosan Mudofaa majmui va huquqni muhofaza qilish organlari muasssalari va tashkilotlari ham 2022-yil 1-yanvardan boshlab o'z davlat xaridlarni elektron tazrda amalga oshira boshladilar. Tovar xom ashyo birjasining e.xarid.uz sayti oraqali bazaviy hisoblash miqdoring 25 barobaridan oshgan mablag'li shartnomalar eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan tanlovlardan amalga oshirilib kelinmoqda.

Eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazish mezonlari

Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quydagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g'olibni aniqlash mezonzari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;
- tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budget buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafer a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon quydagi axborotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- tanlashni o'tkazish shakli;
- tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi;
- tanlash o'tkaziladigan joyning manzili;
- ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar;
- davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdar shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;
- ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;
- taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo'limgan boshqa axborotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafer a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi. Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Qurollli Kuchlari mamlakat hududiy yaxlitligi, xalqimizning osuda hayotini ta'minlash, ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda g'oyat muhim o'rinni tutadi. Keyingi yillarda milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan kuchga, el-yurtimiz tayanchi va suyanchiga aylandi.

Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz suvereniteti va hududiy yaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qodir, tezkor va ixcham milliy armiya tashkil etildi. Milliy armiyamizning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi, harbiy qudrat va salohiyatini yanada oshirish imkonini berdi.

Shuningdek, qo'shin turlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan mexanizmlar yo'liga qo'yilib, eng murakkab vazifalarni ham tezkorlik bilan bajaradigan bo'linmalar tashkil etildi. Qo'shinlarning jangovar va ruhiy tayyorgarlik darajasi oshirildi. Mudofaa sohasidagi islohotlar natijasini qator nufuzli xalqaro harbiy



mashg'ulot va musobaqalarda O'zbekiston harbiy jamoalarining faxrli o'rirlarni egallab kelayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin [7].

Yuqoridagalardan kelib chiqib aytilganda Mudofaa majmui va huquqni muhofaza qilish organlari muassasalari va tashkilotlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xarajatlari g'azna ijrosida amalga oshirilishi uchun davlat xaridlarida mahsus portal yaratilib, maxfiy ko'rinishdagi hujjatlarga ham shart-sharoitlar qilingan. Demak, xulosa qilib aystsak, qurollik kuchlar majmuasi ham budget ham korporativ sifatida davlat xaridlarida ishtirok eta oladilar. Lekin hanuz ish haqi va soliq to'lovlari qog'oz shaklida taqdim etib kelinmoqda. Kelajakda bu masalani ham hal qilishga erishilsa ancha qulayliklar va iqtisodga erishamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi. 2013-yil 26-dekabr. lex.uz>docs/2304138
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi "Davlat budgetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 594-son Qarori. lex.uz>docs/1139941
3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (president.uz) <https://president.uz/uz/pages/view/strategy>
4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i, 15.05.2018-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 1941-1 "Mudofaa majmui va huquqni muhofaza qilish organlari muassasalari va tashkilotlarining budget xarajatlari va boshqa maxfiy xarakterga ega bo'lgan budget xarajatlarning g'azna ijrosi tartibi haqidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida". lex.uz>ru/docs/6559442
5. 2021 yil 12 mart, "Davlat xaridlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. lex.uz>docs/5382974
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom. lex.uz>docs/6026643
7. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi" O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruheni mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni.
8. D.Sholdarov "Development of the education system in the digital economy on the basis of public-private partnership" International Scientific Journal of Finance and Accounting, 2021, №. 2.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.